

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10845694>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KATTA GURUH TARBIVYALANUVCHILARINING MASHG'ULOTDAN BO'SH VAQTLARIDA BADIY ADABIYOT BILAN HAMKORLIGI

Yulduz Kurbonova

Termiz davlat pedagogika institutining "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi.

Odinaeva Ozoda Ilhom qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirishning ahamiyati to'g'risida fikrlar bildirilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar uchun bolalarning bo'sh vaqtlarida kitobxonlikni tarbiyalashga doir metodik ko'rsatmalar, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy-adabiy tadbirlar tashkil etishga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: "Adabiyot va san'at markazi", kitoblar, badiiy adabiyot, bolalarning mashg'ulotdan bo'sh vaqti, insonparvarlik, halollik, rostgo'ylik, ertak syujeti,

Ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar kun davomida bo'lishlari ularning mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarida ham tarbiyachi bilan birgalikda saboq olishlariga imkon beradi. Tarbiyachi bolalarning mashg'ulotlardan tashqari faoliyatida ham badiiy adabiyot bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida guruh xonasida "Adabiyot va san'at markazlari"ni tashkil etadi. Mazkur markazlarda bolalar mustaqil faoliyati uchun barcha sharoitlar yaratili lozim. "Adabiyot va san'at

markaz”larida turli hil kitoblar va etishish, yozish, rasm chizish uchun o‘quv qurollari mavjud bo‘lishi lozim. Bu tinch burchak bo‘lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga “o‘qib berishlari” mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi ovoz chiqarib o‘qib berishi mumkin. Bolalarga ushbu markazlarda nafaqat kitoblarni ko‘rib chiqish va “o‘qish”, balki o‘z qo‘llari bilan yasash (kattalar yordamida), mavzu (syujetlarni) o‘ylab topish va ijro etish, hikoyalar, maqollar, topishmoqlar eshitish, zarurat bo‘lganda kattalar bilan birgalikda yirtilgan kitoblarni ta’mirlashda ishtirok etish taklif etiladi. Bu esa bolani ma’suliyatga undaydi, uni o‘z ishidan mamnun bo‘lishiga imkon beradi.

Katta guruhlardagi bolalar adabiyot markazlarida kattalar yordamida o‘zlari sevgan ertaklarni rollarga bo‘linib ijro etishlari, sahnalashtirishlari mumkin. Bunda tarbiyachi bolalar faoliyatiga rahbarlik qilar ekan ular bilan birgalikda ertak qahramonlarining kostyumlarini(maskalar)ni tayyorlashi, bolalarning hohishi va qobiliyatiga ko‘ra asar qahramonlarining rolini taqsimlashi, qahramonlarning so‘zlarini yodlashga ko‘maklashishi kerak bo‘ladi.

Bolalar ertaklarni sahnalashtirar ekan ertak qahramonlarning ichki kechinmalarini his etishni, yaxshi va yomonlikni farqlashni, insonparvarlik, halollik, rostgo‘ylikni o‘rganadilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida shunday markazlar bilan bir qatorda kichik kutubxonalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, bu kutubxonalar bolalar yoshiga mos kitoblar bilan to‘ldiriladi. Kutubxonalardan kitoblarni bolalar ota-onalari yordamida o‘qish maqsadida uylariga olib ketishlariga ham ruxsat etiladi. Ota-onalar farzandlarini o‘zlari tanlab olgan kitoblarini uyda ular bilan birgalikda ko‘rib chiqishlari, ularga kitoblarni o‘qib berishlari lozim bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi katta guruhlar bilan mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda turli adabiy kechalar o‘tkazish mumkin: Jumladan, A.Navoiy, M.Bobur kabi buyuk siymolar tavallud ayyomiga bagishlab tadbirlar (kechalar, musiqiy daqiqalar) tashkil etiladi. 5-6 yoshli bolalarda kitoblarni o‘qib berish orqali

ular da fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ertaklarni tinglar va ularni rollarga bo'linib ijro qilish bolalarda ijodkorlik shakllanadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan talablarga ko'ra katta guruh tarbiyalanuvchilariga "Oila haqida maqollar va hikmatli so'zlar, o'zbek xalq ertaklari, shuningdek rus xalq ertagi "Yovvoyi qushlar", "Alyonushka opasi va Ivanushka ukasi", nemis xalq ertagi "Kakku qush" asarlar bilan tanishtirish shuningdek bolalarning hohishlariga ko'ra ertaklar o'qib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Badiiy adabiyot bolalarni xar tomonlama tarbiyalash vositasi bo'lib, bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan xissa qo'shadi, she'riy obrazlar orqali bolaga jamiyat, tabiat xayoti, insoniy xis-tuyg'ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik xis-tuyg'ularini, hamdardlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning boshqa a'zolariga g'amxo'rlik ko'rsatish kabi xis-siyotlarini shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish orqali kattalar va kichiklar, tengdoshlari bilan muomila madaniyati shakllantiriladi.

Badiiy adabiyot o'sib kelayotgan avlodni o'z xalqi, jamiyat va ona yurtiga fidoiy inson qilib tarbiyalashni, boy madaniy merosimiz, qadriyatlarimizni hurmat qilish, avaylab asrashga o'rgatadi, kitobni sevishtga o'rgatish bolalarni milliy g'oya, mafkura asosida vatanparvarlik, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini singdirib borishda yaqindan yordam beradi.

Badiiy adabiyot bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan natijalar muloqat sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Katta yoshda bolaning tengdoshlar bilan muloqoti asosiy o'ringa chiqadi. Shu tufayli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nafaqat mashg'ulotlar jarayonida, balki bolalarning mashg'ulotdan tashqari faoliyatini tashkil etishda ham bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish, turli asarlarni rollarga bo'lib ijro etishni tashkil etish, adabiy kechalarni tashkil etishga muhim e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. F.R.Qodirova, R.M.Qodirova (2006) Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi, “Istiqlol” , Toshkent.
- 2.” Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” 1992 yil” , “O‘qituvchi”, Toshkent yil, 35 bet
3. Tixeeva Ye.I. (1981) ” Развитие зучи у детей “ “Prosveshenie”, Moskva,.
4. Kurbonova Yulduz.(2023y. aprel) БОЛАЛАРНИ МАКТАБГА АҚЛИЙ ВА ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТДАН ТАЙЁРЛАШ .Международный научный журнал № 9 (100), часть 3 «Научный импульс»